

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**5-2025
IJTIMOIY
FANLAR**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.X.Djalalova	
Texnologik sivilizatsiya va ijtimoiy-madaniy jarayonlarning falsafiy asoslari.....	104
Sh.T.Abbosova	
Sun'iy intellekt va ijtimoiy barqarorlikning falsafiy tahlili	108
U.K.Mamayusupov	
Jamiyat rivojlanishida strategik rejalashtirishning ahamiyati	110

SIYOSAT

I.M.Arzimatova	
Boshqaruv tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish muammolari	113
L.S.Yuldasheva	
Diniy an'analar va xalq tabobatining uzviy rivoji: qadimdan islom davrigacha bo'lgan ilmiy-falsafiy tahlil.....	119
B.N.Eshbekov	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida siyosiy kommunikatsiya transformatsiyasi	123
A.X.Borotov	
Xususiy mulkni himoya qilish: milliy amaliyot va xorijiy tajriba	127
J.M.Azamov	
Yangi tahrirdagi Konstitutsiya va Konstitutsiyaviy qonunchilikning rivojlanish marra-lari.....	132
M.Kenjaye-va	
Yangi O'zbekiston sharoitida jamoat birlashmalarining tutgan o'rni	137
A.A.Ahrorqulov	
Notijorat tashkilotlar tizimida kasaba uyushmalarining tutgan o'rni	141

TARIX

O.V.Mahmudov	
Musulmon Sharqi mutafakkirlari asarlarining Yevropaga tarqalish bosqichlari va geografik yo'nalishlari	145
T.T.Safarov	
Farg'ona viloyatida rus qishloqlarining paydo bo'lishi tarixidan.....	154
B.X.Abdullayev	
Rahima Aminovanning xotin-qizlar ijtimoiylashuvidagi ilmiy izlanishlari.....	158
N.M.Ikromov, A.A.Fayziyev	
The exchange of tea and horses in trade relations between China and Central Asia	162
Z.Sh.Turg'unboyev	
Badriddin Al-Ayniy va uning Amir Temur haqida qarashlariga umumiy tavsif	166
G.X.Xasanboyeva	
Sovet hokimiyati yillari qishloq xo'jaligida sug'orish tizimining o'rni.....	171
A.Sharafiddinov	
XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Farg'ona viloyatida paxtachilik va paxta yakkaxokimligining vujudga kelishi	174

ILMIY AXBOROT

M.Y.Sultonov	
Tarixiy xotira va ma'naviy meros: Sharq mamlakatlari tajribasi.....	179



UO'K: 101.1:316.7

TEKNOLOGIK SIVILIZATSIYA VA IJTIMOY-MADANIY JARAYONLARNING FALSAFIY ASOSLARI**ТЕХНОЛОГИЧЕСКАЯ ЦИВИЛИЗАЦИЯ И ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ СОЦИОКУЛЬТУРНЫХ ПРОЦЕССОВ****TECHNOLOGICAL CIVILIZATION AND THE PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF SOCIO-CULTURAL PROCESSES****Djalalova Nigora Xusanovna** 

Farg'ona davlat universiteti, "Musiqiy ta'lim va madaniyat" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada ijtimoiy-madaniy texnologiyalar tushunchasining falsafiy mohiyati, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni hamda inson faoliyatining madaniy shakllanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Ijtimoiy-madaniy jarayonlarni texnologik yondashuv asosida boshqarish masalalari, zamonaviy kommunikativ muhit va raqamli transformatsiya sharoitida ijtimoiy texnologiyalarning yangi shakllari ko'rib chiqiladi.

Аннотация

В данной статье анализируется философская сущность понятия социокультурных технологий, их роль в развитии общества и влияние на культурное формирование человеческой деятельности. Рассматриваются вопросы управления социокультурными процессами на основе технологического подхода, а также новые формы социальных технологий в условиях современной коммуникативной среды и цифровой трансформации.

Abstract

This article analyzes the philosophical essence of the concept of sociocultural technologies, their role in the development of society, and their impact on the cultural formation of human activity. The study examines the management of sociocultural processes based on a technological approach, as well as new forms of social technologies emerging in the context of the modern communicative environment and digital transformation.

Kalit so'zlar: ijtimoiy falsafa, madaniyat, ijtimoiy texnologiya, kommunikatsiya, raqamli madaniyat, modernizatsiya.

Ключевые слова: социальная философия, культура, социальная технология, коммуникация, цифровая культура, модернизация.

Key words: social philosophy, culture, social technology, communication, digital culture, modernization.

KIRISH

XXI asrda insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi-ijtimoiy-madaniy texnologiyalar davri boshlandi. Globallashuv, raqamli kommunikatsiyalar va axborot oqimlarining keskin ortishi inson faoliyatining barcha sohalarini texnologik asoslarga ko'chirish zaruratini tug'dirdi. Shu bois, "ijtimoiy-madaniy texnologiyalar" tushunchasi nafaqat sociologik yoki menejment nuqtai nazaridan, balki falsafiy tahlil obyekti sifatida ham alohida ahamiyat kasb etmoqda.¹

Falsafa nuqtai nazaridan, ijtimoiy-madaniy texnologiyalar-bu insoniyatning ijtimoiy amaliyoti, madaniy qadriyatlari va kommunikativ faoliyatini ongli ravishda shakllantirish va boshqarish usullaridir. Ular madaniyatni "statik tizim" emas, balki dinamik, o'zgaruvchan ijtimoiy jarayon sifatida talqin etishga yordam beradi.² Shu ma'noda, madaniy texnologiyalar inson faoliyatining estetik, axloqiy va kommunikativ qirralarini birlashtirib, jamiyatni yangilanishga tayyorlaydi.

Zamonaviy falsafiy tahlilda ijtimoiy-madaniy texnologiyalar konsepsiyasi insonning ijtimoiy mavjudot sifatidagi mohiyatini qayta anglashga yo'naltirilgan. U texnologiyani shunchaki texnik jarayon emas, balki ijtimoiy ma'no ishlab chiqarish vositasi sifatida ko'radi.³ Masalan, raqamli madaniyatning shakllanishi, sun'iy intellekt bilan bog'liq etik muammolar, onlayn kommunikatsiyaning yangi turlari- bularning barchasi madaniyatning texnologik tarmoqqa singib borayotganidan dalolat beradi.

FALSAFA

Shu o'rinda, ijtimoiy-falsafiy tahlil bu jarayonning ichki mohiyatini-ya'ni, texnologiya orqali inson o'z mohiyatini qay darajada namoyon etayotganini o'rganadi. Agar XX asrda texnologiya insonni tabiatdan ajratgan bo'lsa, XXI asrda u insonni global madaniy muhit bilan yanada chuqurroq bog'lab qo'yimoqda.⁴

Shunday qilib, mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni zamonaviy falsafaning asosiy tushunchalaridan biri sifatida talqin etadi. Tadqiqotning maqsadi — ushbu texnologiyalarning inson, jamiyat va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni qanday o'zgartirayotganini falsafiy tahlil asosida yoritishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ijtimoiy-madaniy texnologiyalar masalasi hozirgi falsafada ko'p yo'nalishli va interdiscipliner tadqiqot sohasi sifatida shakllangan. Uning nazariy asoslari G'arb falsafasida kommunikativ, fenomenologik va sivilizatsion yondashuvlar orqali, Sharq falsafasida esa axloqiy-ma'naviy tizimlar orqali rivojlangan. Mazkur tahlil, mavjud konseptual yondashuvlarni sintez asosida qayta ko'rib chiqish va yangi falsafiy metodologiyani asoslashga yo'naltirilgan.

Ijtimoiy-madaniy texnologiyalar konsepsiyasining dastlabki nazariy ildizlari XX asrning ikkinchi yarmida shakllandi. J.Habermasning kommunikativ faoliyat nazariyasida texnologiya insonlar o'rtasidagi muloqotni boshqarishning ma'naviy mexanizmi sifatida talqin etiladi. U jamiyatning modernizatsiyasi texnologik emas, balki kommunikativ raqionallik orqali amalga oshirishini ta'kidlaydi.¹ Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy-madaniy texnologiyalar-bu inson ongining muloqot orqali o'zini namoyon etish vositasidir.

M. Heidegger texnologiyani inson va borliq o'rtasidagi munosabat shakli sifatida tahlil qilib, uni "borliqning ochilish usuli" deb ataydi. Unga ko'ra, texnologiya insonni faqat ishlab chiqaruvchi emas, balki borliqni anglovchi mavjudot sifatida namoyon etadi.⁴ Demak, madaniy texnologiyalar insonning ruhiy va ontologik tajribasini shakllantiruvchi vositadir.

Zamonaviy soqnologik yondashuvlarda esa M. Castellning tarmoq jamiyati nazariyasi alohida ahamiyatga ega. U ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni "axborot oqimlari orqali jamiyatni boshqarishning yangi paradigmasi" sifatida talqin etadi.³ Uning fikricha, raqamli kommunikatsiyalar jamiyatda yangi ijtimoiy makon-virtual madaniyatni yaratmoqda.

Shuningdek, Z. Bauman modernlikning suyuq shakli haqida so'z yuritib, texnologiyalarning inson munosabatlariga kiritgan o'zgarishlarini "beqarorlik va tezkorlik falsafasi" orqali tushuntiradi.² Unga ko'ra, texnologik zamon madaniy qadriyatlarni vaqtinchalik hodisaga aylantirmoqda.

Sharq falsafasi an'analari esa madaniy jarayonlarning texnologik emas, balki axloqiy-ma'naviy boshqaruvi ustuvor bo'lgan. Masalan, Forobiy va Ibn Sino inson kamolotini ma'naviy tarbiya va ijtimoiy uyg'unlik orqali ta'minlashni ijtimoiy faoliyatning asosiy mexanizmi deb bilganlar.⁵ Bu yondashuvlar zamonaviy falsafada "madaniy-axloqiy texnologiyalar" konsepsiyasi bilan uyg'unlashadi.

Tadqiqotning metodologik asosini falsafiy hermenevtika, tizimli yondashuv va interdiscipliner integratsiya prinsiplari tashkil etadi. Birinchidan, hermenevtik tahlil madaniy texnologiyalarni insoniy ma'no va qadriyatlarni yaratish jarayoni sifatida talqin etadi.⁶ Bu yondashuv madaniyatni inson tajribasining muloqotli shakli sifatida ochib beradi.

Ikkinchidan, tizimli yondashuv ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni jamiyatning boshqa tizimlari-siyosat, iqtisod, ta'lim va axborot bilan o'zaro aloqada tahlil qiladi.

Uchinchidan, interdiscipliner metod falsafa, soqnologiya, madaniyatshunoslik va kommunikatsiya nazariyalarini uyg'unlashtirish orqali ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni kompleks o'rganish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotda shuningdek, komparativ tahlil (taqqoslovchi usul) qo'llanilib, G'arb va Sharq falsafalarida texnologiya va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik tahlil etiladi. Dialektik metod esa ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni o'zgaruvchan tarixiy jarayon sifatida, ularning ichki qarama-qarshiliklari orqali tushuntirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, metodologik asos sifatida insonning texnologiya orqali o'z mohiyatini anglash, madaniyatni esa bu jarayonning ma'naviy shakli sifatida talqin etish konsepsiyasi ilgari suriladi. Bu yondashuv texnologiyani nafaqat ijtimoiy boshqaruv vositasi, balki falsafiy refleksiya obyekti sifatida ko'rishga imkon beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-madaniy texnologiyalar zamonaviy jamiyatda nafaqat ijtimoiy boshqaruv vositasi, balki insonning o'zini anglash va ma'naviy o'sishini ta'minlovchi madaniy mexanizm sifatida shakllanmoqda. Falsafiy tahlil jarayonida aniq bo'ldiki, bu texnologiyalar jamiyatning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini qayta ishlab chiqish, ularni yangi kommunikativ formatlarda ifodalash va uzatish imkonini beradi.¹

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, texnologiyalar insonning tashqi dunyo bilan o'zaro aloqasini tashkil etuvchi vosita sifatida emas, balki insonning borliqqa nisbatan refleksiv munosabati sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayon Heidegger ta'biri bilan aytganda, "borliqning ochilishi"dir, ya'ni texnologiya insonning mavjudlikni anglash shakliga aylanadi.⁴ Shu sababli, ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni o'rganish — bu inson mohiyatini texnologik kontekstda qayta talqin etishdir.

Falsafiy nuqtai nazardan, bu texnologiyalar ijtimoiy tizimlarni avtomatik boshqarish vositasi emas, balki ma'naviy tajriba ishlab chiqaruvchi mexanizm sifatida talqin etilishi kerak. Ular orqali insoniyat madaniy merosni saqlab qolish bilan birga, uni yangi shakllarda davom ettiradi.

Zamonaviy raqamli makonda ijtimoiy-madaniy texnologiyalar kommunikatsiyaning yangi turlarini vujudga keltirdi. M. Castells tomonidan ilgari surilgan "tarmoq jamiyati" konsepsiyasi bu jarayonning mohiyatini chuqur yoritadi. Uning fikricha, axborot oqimlari asosida qurilgan global tizim inson faoliyatining madaniy asoslarini o'zgartirib, "virtual madaniyat" ni yaratmoqda.³

Shu bilan birga, Z. Bauman ta'kidlagan "suyuqlik" (liquidity) tushunchasi texnologik madaniyatning beqarorligini ochib beradi. Raqamli kommunikatsiya tezkor, ammo sayoz muloqotlarni yaratadi, bu esa madaniyatning ma'naviy asoslarini zaiflashtiradi.² Shu sababli, falsafa bu jarayonni insonni "raqamli muhitda yo'qotmaslik" tamoyili bilan muvofiqlashtirishi lozim.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli madaniyat insonning yangi identifikatsiya shakllarini yaratmoqda. Virtual makonda inson o'z "men"ini raqamli obraz orqali ifodalaydi va bu holat antropologik o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Shunday ekan, texnologiyalar madaniy taraqqiyot vositasi bo'lishi uchun ular axloqiy nazorat va falsafiy refleksiya bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak.⁶

Sharq falsafasining ma'naviy-axloqiy yondashuvi bilan G'arbning texnologik raqionalizmi o'rtasidagi uyg'unlik, ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni yanada mukammal tushunish imkonini beradi. Forobiy va Ibn Sino asarlarida jamiyat taraqqiyoti "fazilatli inson" g'oyasi orqali asoslanadi.⁵ G'arb falsafasida esa, insonning texnologik faoliyati "ma'no yaratish" jarayoni sifatida talqin etiladi.¹

Natijada, ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni anglashda integrativ model zarurligi aniqlanadi. Bu modelda texnologiya nafaqat moddiy ishlab chiqarish vositasi, balki axloqiy-estetik qadriyatlar yaratish vositasi sifatida talqin etiladi. Falsafa bu jarayonda "inson markaziylik" prinsipini saqlab qolish orqali texnologiyani ma'naviy yuksalish yo'liga yo'naltiradi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, ijtimoiy-madaniy texnologiyalar — bu inson faoliyatining yangi bosqichini ifodalovchi, madaniyatning dinamik tabiatini ochib beruvchi falsafiy kategoriya hisoblanadi. Ular orqali jamiyatda yangicha qadriyatlar, yangi kommunikatsiya shakllari va yangi identifikatsiyalar yuzaga keladi. Shu bilan birga, bu texnologiyalar insonni o'z mohiyatidan uzoqlashtirish xavfini ham keltirib chiqaradi.

Shu sababli, ijtimoiy falsafa oldida turgan eng muhim vazifa — texnologiyani insonparvarlik tamoyillari bilan uyg'unlashtirish, uni madaniyat va ma'naviyat xizmatiga yo'naltirishdan iboratdir. Zero, texnologiya inson uchun emas, inson texnologiyaning ma'nosini yaratadigan mavjudotdir.⁴

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-madaniy texnologiyalar zamonaviy falsafaning eng dolzarb kategoriyalaridan biri bo'lib, ular insoniyatning madaniy taraqqiyotida yangi bosqichni ifodalaydi. Bu texnologiyalar — jamiyatning faqat tashkiliy yoki kommunikativ tizimi emas, balki ma'naviy-axloqiy energiyani shakllantiruvchi madaniy mexanizmdir.

Tadqiqot davomida aniqlanganki, texnologiyaning mohiyati — insonning o'zini anglash jarayoni bilan bevosita bog'liq. M. Heideggerning ta'biri bilan aytganda, texnologiya insonning "borliqni ochish" vositasi, ya'ni mavjudlikni anglash shaklidir.⁴ Shu sababli, ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni tahlil qilish insonning texnologik faoliyati orqali o'z mohiyatini qayta kashf etish jarayoni sifatida ko'riladi.

Zamonaviy raqamli muhitda madaniyatning shakli tubdan o'zgarmoqda. M. Castells ta'kidlaganidek, "tarmoq jamiyati" sharoitida ijtimoiy tuzilmalarning markaziy o'qi endi axborot oqimlariga asoslanmoqda.³ Bu jarayon ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni inson hayotining barcha jabhalariga — ta'lim, siyosat, san'at va ma'naviyatga chuqur singdirgan. Ammo bu o'zgarishlar bilan

FALSAFA

birga, insoniy qadriyatlarning zaiflashuvi, "sun'iy ong"ning ma'naviyat ustidan ustunlikka chiqish xavfi ham kuchaymoqda.²

Shu bois, falsafaning vazifasi — texnologiyani tanqidiy tahlil qilish, uni insonparvarlik mezonlari bilan muvofiqlashtirishdan iboratdir. Inson texnologiyani yaratadi, biroq uni ma'noga to'ldiradigan ham insonning o'zi. Bu jarayonda germeneytik yondashuv alohida ahamiyatga ega, chunki u madaniyatni insoniy muloqot va ma'no yaratish jarayoni sifatida talqin etadi.⁶

Tadqiqotning natijasi sifatida, ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni falsafiy tahlil qilish quyidagi xulosalarga olib keladi:

1. Ijtimoiy-madaniy texnologiyalar — bu insonning borliqni idrok etish, anglash va qayta yaratish mexanizmlarini mujassamlashtiruvchi falsafiy kategoriya.

2. Ular jamiyatning ma'naviy boshqaruv tizimini shakllantiradi va inson faoliyatining estetik, axloqiy hamda kommunikativ jihatlarini uyg'unlashtiradi.¹

3. Raqamli transformatsiya davrida bu texnologiyalar insonni global tarmoq madaniyatiga qo'shadi, lekin shu bilan birga, insonni "texnologik obyektga" aylantirish xavfini ham tug'diradi.³

4. Shu sababli, falsafiy yondashuv texnologiyani insonparvarlik tamoyillari bilan uyg'unlashtirishga, uni ma'naviy taraqqiyot vositasi sifatida yo'naltirishga qaratilishi zarur.

5. Sharq falsafasi merosi — Forobiy, Ibn Sino va boshqa allomalar ta'limoti asosida texnologiyaga axloqiy-ruhiy ma'no berish konsepsiyasi bugungi davr uchun muhim metodologik yo'nalish bo'lib qolmoqda.⁵

Umuman olganda, ijtimoiy-madaniy texnologiyalar falsafasi insonni texnologik jarayonlarning passiv ishtirokchisidan faol ma'no yaratuvchisiga aylantiradi. U madaniyatni nafaqat saqlab qolish, balki uni ma'naviy yuksalish yo'lida yangilab borish imkonini beradi. Shu tariqa, texnologiya — inson tafakkurining natijasi bo'lish bilan birga, insoniyatning kelajakdagi mavjudlik shaklini ham belgilab beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Habermas, J. (1984). *The Theory of Communicative Action*. Boston: Beacon Press.
2. Bauman, Z. (2000). *Liquid Modernity*. Cambridge: Polity Press.
3. Castells, M. (2010). *The Rise of the Network Society*. Oxford: Blackwell Publishing.
4. Heidegger, M. (1977). *The Question Concerning Technology*. New York: Harper & Row.
5. Al-Farabi. (1993). *The Virtuous City (Al-Madina al-Fadila)*. Beirut: Dar al-Mashriq.
6. Gadamer, H.-G. (2004). *Truth and Method*. London: Continuum.